



UMURTQA CHURRASINI ANIQLASHDA MRTNING DIAGNOSTIK IMKONIYATLARINI BAHOLASH

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti

Qodirqulova Rayhona

+99850-510-77-14, raykhoonie@gmail.com

Dolzarlighi. Umurtqalararo disk churrasi tayanch-harakat tizimi kasalliklari orasida keng tarqalgan bo'lib, ayniqsa mehnatga layoqatli yoshdagi aholi orasida ko'p uchraydi. Bel sohasidagi disk churralari 60–70% hollarda, bo'yin sohasi esa 20–30% hollarda uchraydi. Disk churrasini o'z vaqtida aniqlamaslik surunkali og'ir sindromga va nevrologik asoratlarga olib kelishi mumkin. Magnit-rezonans tomografiya yumshoq to'qimalarni yuqori aniqlikda tasvirlashi sababli umurtqa disk churralarini aniqlashda “oltin standart” hisoblanadi.

Maqsad. Umurtqa churrasini aniqlashda MRTning diagnostik imkoniyatlarini baholash, hamda uning klinik ahamiyatini aniqlash.

Materiallar va usullar: Tadqiqot davomida 30 nafar bemor MRT tekshiruvdan o'tkazildi. Tekshiruv 1,5 Tesla kuchlanishli apparatda sagittal va aksial proyeksiyalarda T1 va T2 og'irlikdagi tasvirlar yordamida bajarildi. Baholash mezonlari: Disk protrusiyasi yoki ekstruziyasi mavjudligi; Churraning o'lchami va lokalizatsiyasi; Nerv ildizlariga kompressiya darajasi; Orqa miya kanali torayishi (stenoz) belgilari.

Natijalar: Tekshiruv natijalariga ko'ra 18 nafar (60%) bemorda bel sohasida disk churrasi, 6 nafar (20%) bemorda bo'yin umurtqa churrasi aniqlangan. 4 nafar (13%) bemorda disk protrusiyasi qayd etildi, 2 nafar (7%) bemorda patologik o'zgarish aniqlanmadi. MRT yordamida churraning turi,





hajmi va nerv ildizlariga bosim darajasi aniq baholandi .

Xulosa:MRT umurtqa churrasini aniqlashda yuqori informativlikka ega, nurlanishsiz va ishonchli diagnostika usuli hisoblanadi.Ushbu usul yordamida disk churrasining turi va lokalizatsiyasi aniqlanib, davolash taktikasini to'g'ri tanlash imkonini beradi .

